BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIK VA IJODIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK STRATEGIYALAR

Otaxanova Nodira Jumanazarovna

UrDPl San’atshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi,

nodiraotaxonovaI@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ tafakkuri va ijodiy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik strategiyalar tahlil qilinadi. Badiiy-estetik ta’lim jarayonida loyihalash metodikasi, assotsiativ va obrazli fikrlash, muammoli-ijodiy topshiriqlar hamda fanlararo integratsiyaning samardorligi amaliy misollar orqali yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy mualliflik yondashuvini shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar va baholash mezonlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ tafakkur, ijodiy tasavvur, pedagogik strategiya, fanlararo integratsiya, assotsiativ fikrlash, tasviriy san'at o‘qituvchisi, badiiy obraz.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются инновационные педагогические стратегии, направленные на развитие креативного мышления и творческого воображения будущих учителей изобразительного искусства в системе высшего образования. На практических примерах освещена эффективность проектной методики, ассоциативного и образного мышления, проблемно-творческих заданий и междисциплинарной интеграции в процессе художественно-эстетическогообразования.

Ключевые слова: креативное мышление, творческое воображение, педагогическая стратегия, междисциплинарная интеграция, учитель изобразительного искусства, художественный образ.

ABSTRACT

This article analyzes innovative pedagogical strategies aimed at developing creative

thinking and imagination of future fine arts teachers in higher education. The effectiveness of project methodology, associative thinking, problem-creative tasks, and interdisciplinary integration in artistic education is highlighted through practical examples. Methodological recommendations for shaping a professional authorship approach are proposed.

Keywords: creative thinking, artistic imagination, pedagogical strategy, interdisciplinary integration, fine arts teacher, artistic image.

Zamonaviy ta’lim paradigmalarida bo‘lajak pedagog shaxsining ijodiy salohiyati va kreativligi uning kasbiy layoqatini belgilovchi eng muhim mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilarga nafaqat akademik tasvirlash qoidalarini (nisbatlar, yorug‘-soya) o‘rgatuvchi, balki ularda noan’anaviy badiiy tafakkur, estetik idrok hamda visual madaniyatni shakllantiruvchi asosiy vositachidir. Aholi ma’naviyatini yuksaltirish va san’at ta’limini tubdan takomillashtirish jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kreativlik va ijodiy tasavvurni shakllantirish yangicha yondashuvlarni talab etadi. An’anaviy ko‘chirmachilik va shablonli mashg‘ulotlar talabaning shaxsiy ijodiy salohiyatini cheklab qo‘yadi. Shuning uchun o‘quv jarayoniga talabalarning ichki kechinmalari, tasavvurlari va konseptual g‘oyalarini yuzaga chiqaruvchi pedagogik strategiyalarni joriy etish zarurati tug‘ilmoqda.
Ushbu tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kreativ fikrlash va ijodiy tasavvurni shakllantirishning innovatsion pedagogik mexanizmlari va amaliy strategiyalarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini asoslashdan iboratdir. Kreativlik va badiiy tasavvurni rivojlantirish muammosi psixologiya hamda san’atshunoslik pedagogikasida turli jihatdan tadqiq qilingan. B.M.Teplov va L.S.Vigotskiy o‘z ishlarida tasavvur va ijodkorlikning o‘zaro bog‘liqligini, tasavvur insonning hayotiy tajribasi va hissiy holatiga tayanishini ko‘rsatganlar. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda (A.S.Sulaymonov, N.N.Rostovtsev, B.M.Nemendskiy) tasviriy san'at darslarida obrazli va assotsiativ fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifat, amaliy-loyiha va integratsiyalashgan yondashuvlarga tayanadi. Oliy ta'lim muassasalarining “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida quyidagi metodik instrumentlardan foydalanildi:

1. Fanlararo integratsiya strategiyasi — tasviriy san’atni adabiyot, musiqashunoslik va falsafa bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘qitish.
2. Assotsiativ-metaforik mashqlar — muayyan ramzlar va metaforalar orqali vizual badiiy obrazlar yaratish.

3. Badiiy-kreativ loyihalash usuli — talabalarning yakka tartibdagi va jamoaviy konseptual loyihalarini tashkil etish.
4. Refleksiv-tahliliy baholash — yaratilgan asarlarning badiiy qimmati va g‘oyaviy originalligini jamoaviy muhokama qilish.

Tadqiqot davomida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ tafakkuri hamda ijodiy tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi to‘rtta asosiy pedagogik strategiya aniqlandi va amaliyotga tatbiq etildi.

1.Innovatsion pedagogik strategiyalar va ularning tavsifi Pedagogik Strategiya Mazmuni va Amaliy Metodlar Kutilayotgan Kasbiy Natija

1. Assotsiativ-metaforik modellashtirish Sheriy satrlar, falsafiy g‘oyalar va musiqiy pyesalarni rang va chiziqlarga translyatsiya qilish Mavhum g‘oyalarni visual obrazlarga aylantirish va teran idrok etish mahorati

2. Stilizatsiya va shakliy transformatsiya Realistik shakllarni ornamental, miniatyura yoki konseptual uslubda qayta ishlash Akademik qoliplardan erkin ijodiy yechimlarga o‘tish va shaxsiy uslubni toppish

3. Konseptual badiiy loyihalash “Mening ichki dunyoyim”, “Vaqt va makon”, “Ekologik xavotir” kabi loyihalar yaratish Ijtimoiy va falsafiy muammolarga badiiy yechim berish, mantiq va tasavvur uyg‘unligi

4. Fanlararo badiiy sintez Tasviriy san’at, teatr, raqamli media hamda haykaltaroshlik vositalarini birgalikda qo‘llash Keng qamrovli dunyoqarash, ko‘p qirrali kreativlik va innovatsion metodika

Kreativlikni baholash va rivojlantirish darajalari Tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativlik darajasini baholash uchun quyidagi uchta mezon ishlab chiqildi: Tasvirlanayotgan mavzuga nostandart yondashuv, shablon va takrorlanishlarning yo‘qligi.

• Badiiy g‘oyaning originalligi: Rang, kompozitsiya va chiziqlar vositasida ichki kechinma hamda kayfiyatni ta'sirchan yetkaza olish.

• Obrazli tasavvur va ekspressivlik: An’anaviy va zamonaviy materiallar hamda noan'anaviy texnikalarni (monotipiya, kollaj, mixed-media) mahorat bilan qo‘llay olish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kreativ fikrlash va ijodiy tasavvurni shakllantirish shunchaki iqtidorga bog‘liq jarayon emas, balki to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik tizim va innovatsion strategiyalarning natijasidir. Bo‘lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish ularning kelajakda innovatsion va natijador darslar o‘tishini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Tasviriy san’at yo‘nalishidagi amaliy mashg‘ulotlarda akademik qoidalar va ijodiy erkinlik o‘rtasidagi mutanosiblikni saklash, erkin loyihalarga ajratilgan soatlarni ko‘paytirish;

Fanlararo integratsiya va assotsiativ modellashtirish usullarini rangtasvir, kompozitsiya hamda amaliy san'at darslariga keng joriy etish; Talabalarning kreativ loyihalaridan iborat mualliflik ko‘rgazmalari va mahurat darslarini muntazam tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Tashkent, 2020.
2. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – Tashkent: “Sano-standart”, 2021.
3. Vigotskiy L.S. Voobrajeniye i tvorchestvo v detskom vozraste. – Moskva: Prosveshchenie, 1991.
4. Nemendskiy B.M. Poznaniye iskusstvom. – Moskva: Uchebnaya literatura, 2017.
5. Sulaymonov A.S. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning badiiy-ijodiy salohiyatini oshirish. – Tashkent: “Fan va texnologiya”, 2019.